

MOLIYAVIY NAZORAT DAVOMIDA ANIQLANADIGAN QOIDABUZARLIK VA KAMCHILIKLAR TARKIBI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

Iqtisodiy fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD),

Ismoilov Muhammadqodir Ulug'bek o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti,

magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy nazorat jarayonida aniqlanadigan qoidabuzarlik va kamchiliklarning tarkibi, ularning mazmuni hamda yuzaga kelish sabablari tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyaviy nazorat davomida aniqlanadigan buzilishlarning turli ko'rinishlari, ularning iqtisodiy oqibatlari va yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, qoidabuzarlik, kamchilik, xato, firibgarlik va boshqa moliyaviy buzilish tushunchalarining mohiyati yoritilib, ularning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Maqolada moliyaviy nazorat jarayonida aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda kelgusida bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ayrim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy nazorat, qoidabuzarlik, kamchilik, javobgarlik, moliyaviy intizom, taftish, tekshirish, firibgarlik, sohtalashtirish, zarar, ichki nazorat.

KIRISH

Taftish va tekshirishni amalga oshirish, ularning natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishdan oldin, xodimlar faqat to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zarar yetkazilgan taqdirda moddiy javobgarlikka tortiladi.

Taftish va tekshirish jarayonida moddiy zararni aniqlash iqtisodiy nazoratning muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda, tegishli xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish jarayonida, birinchi navbatda, mol-mulkni saqlash va saqlash holatiga e'tibor berish, tashkilot tomonidan yetkazilgan zararining har bir holatini va ushbu shaxslar tomonidan qoplanishini ta'minlash uchun aniq aybdorlar aniqlanadi.

Iqtisodiy jarayonlarga ko‘ra, moddiy zarar tashkilotning asossiz xarajatlarini o‘z ichiga oladi, bu yozuvlar yoki ishlarning sifatsiz bajarilishi natijasida yuzaga keladi, mahsulotlar va xizmatlar miqdori va sifatini noto‘g‘ri aniqlash, tariflar, narxlar, chegirmalar, nafaqalarni noto‘g‘ri qo‘llash, amaldagi qonunchilikni buzish va boshqalar.

Barcha holatlarda moddiy zarar miqdori hisoblab chiqilgan haqiqiy yo‘qotishlar asosida aniqlanadi:

pul mablag‘lari - ularning nominal qiymati bo‘yicha;

moddiy boyliklar - bozor narxlarida, ammo ushbu mulkning asl darajasini hisobga olgan holda buxgalteriya ma‘lumotlari bo‘yicha mulk qiymatidan past bo‘lmagan miqdorda;

iqtisodiy jarayonlar bo‘yicha - haqiqiy xarajatlar miqdorida.

Xodim ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini Mehnat Kodeksda belgilangan tartibda va doirada qoplash majburiyati belgilangan. Xodimning to‘liq moddiy javobgarligi uning ish beruvchiga bevosita yetkazilgan haqiqiy zararining o‘rnini to‘liq miqdorda qoplash majburiyatidan iboratdir.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarini takomillashtirish hamda ularning faoliyatini tahlil qilish jarayonida bu sohada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va ilmiy izlanishlari o‘rganildi. Shu jumladan, xorijiy iqtisodchilar Yu. A. Kroxina va S. Y. Zakutnevning fikrlari ayniqsa alohida e‘tiborga loyiqdir.

S.Y. Zakutnevning ta’kidlashicha, budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazoratning rivojlanishi tashqi davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati uchun katta ahamiyatga ega.²

Kroxina Yu.A. moliyaviy huquqbuzarlikni moliyaviy huquq subyekti tomonidan moliyaviy qonunchilikni buzgan holda sodir etilgan noqonuniy harakat (yoki harakatsizlik) sifatida ta’riflaydi, buning uchun moliyaviy qonunchilik javobgarlikni belgilaydi.³

Mamlakatimiz olimlaridan J.M. Babaxonovning fikriga ko‘ra, moliyaviy nazorat tizimi chora-tadbirlar asosida samarali tashkil etilsa, bu davlat budjeti mablag‘larining

¹ O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2022.

² Закутнев С.Е. Организация внутреннего финансового аудита финансово-экономической и хозяйственной деятельности в Вооруженных Силах Российской Федерации // Вооружение и экономика, 2011. – № 3 (15). – С. 73-80.

³ Крохина Ю.А. Финансовое правонарушение: понятие, состав и санкции // Финансовое право. 2004. №3.С. 16-20.

talon-toroj qilinishiga va turli qonunbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.⁴

D.X. Po'latovning ta'kidlashicha, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish budjet jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, budjet mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot tizimlarini yanada takomillashtirish zarur. Olim vazirlik va idoralar tomonidan budjet intizomiga rioya etish bo'yicha mas'uliyatni oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan davlat moliyaviy nazorat standartlarini qo'llash orqali korrupsiya va budjet qonunchiligi buzilishi holatlarining oldini olish mumkinligini ta'kidlaydi.⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi hamda mavzuni yoritishda kuzatish, sintez, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xodimlarni ular tomonidan ham ish beruvchiga bevosita yetkazilgan, ham boshqa shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash natijasida ish beruvchida yuzaga kelgan to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zarar uchun moddiy javobgarlikka tortiladi.⁶

Yetkazilgan zarar quyida belgilangan hollarda aybdorlardan to'liq miqdorda undirilishi kerak, ya'ni:

- 1) to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning kamomadida;
- 2) xodim tomonidan bir martalik hujjat (tovar-moddiy qimmatliklarni olish ishonchnomasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazolar) bo'yicha olingan boyliklarning but saqlanishi ta'minlanmaganda;
- 3) qasddan zarar yetkazilganda;
- 4) alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;
- 5) xodimning sud tomonidan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;

⁴ Babaxonov J.M. Moliyaviy nazorat va uning O'zbekiston iqtisodiyotida budjet munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rni // Logistika va iqtisodiyot, 2021. – 3-son. – B. 121-127.

⁵ Po'latov D.X. O'zbekistonda budjet nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy xususiyatlari // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center, 2022. – № 2. – P. 544-551.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.

6) ma'muriy huquqbuzarlik natijasida zarar yetkazilganda, agar bu tegishli davlat organi yoki sud tomonidan aniqlangan bo'lsa;

7) davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni (tijorat, xizmat sirini yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor qilinganda;

8) xodim mehnat majburiyatlarini bajarmagan taqdirda zarar yetkazilganda.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, ya'ni:

- O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish;


- O'g'rilik;

- Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish;

- Budjet intizomini buzish;

- Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish moddalari mavjud va boshqa jinoyat sodir etgan shaxs Jinoyat Kodeksi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Moliyaviy nazorat davomida aniqlanadigan buzilishlar asosan ikki yirik toifaga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy nazorat davomida aniqlanadigan buzilishlar toifalari.

Mansabdor shaxslar tomonidan moliya intizomini buzganliklari natijasida keltirilgan zarar hajmini tavsiflashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida keltirilgan tushunchalarni qo'llanadi, aynan:


Ko'p bo'lmagan zarar – eng kam ish haqining o'ttiz dan yuz barobarigacha;

Ancha miqdordagi zarar – eng kam ish haqining yuzdan uch yuz barobarigacha;

Ko'p miqdordagi zarar – eng kam ish haqining uch yuzdan besh yuz barobarigacha;

Juda ko'p miqdordagi zarar – eng kam ish haqining besh yuz barobari va undan ortiq.

Ular ham o'z o'rnida iqtisodiyotimizda keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zarar darajalariga bo'linadi (2-rasm).



2-rasm. Moliyaviy nazorat davomida aniqlanadigan buzilishlar toifalari.

Bunda, past darajadagi zararni aniqlangan vaqtning o'zida bartaraf qilish va jazolash choralarini talab etmaydi. Bular hisoblashdagi xatoliklar, iqtisodiy operatsiyalarni aks ettirish muddatlarini buzish, arifmetik hisob-kitoblardagi xato yoki hisobot muddatlarini vaqtida bajarmaslik holatlari.

O'rta darajadagi zararlar ham aniqlangan vaqtning o'zida bartaraf qilish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, ushbu holatda intizomiy jazoga tortiladi. Ortiqcha to'langan mablag'lar, mablag'larni to'liq to'lamaslik, naqd pul ortiqchaligi, hisob-kitoblarni noto'g'ri hisoblash, tasdiqlovchi hujjatlarsiz to'lov amalga oshirish, avansni qaytarish muddatlarini buzish, soliqlarni o'z vaqtida o'tkazmaslik, buxgalteriya qoidalarini buzish, moliyaviy hisobotlarni buzish, moliyaviy hujjatlarni yo'qotish, qayta to'lovlarni amalga oshirish, tegishli asoslarsiz hisobdan chiqarish, ta'til to'lovlarini hisoblashda xatolar, kompensatsiya to'lovlarini noto'g'ri hisoblash, shartnomalarning moliyaviy shartlariga rioya qilmaslik, tabiiy yo'qotish me'yorlaridan yuqori yo'qotishlar, yuk tashish paytida yukni yo'qotish yoki yukning shikastlanishi, sifatsiz materiallarni qabul qilish, inventarizatsiya raqamlarisiz mulk hisobga olinmagan qismlarning mavjudligi, nosoz uskunalarning ishlashi yoki foydalanish qoidalarini buzish hamda boshqa shular kabi holatlarni bartaraf qilib bo'lsada, kelgusida takrorlanmasligi uchun intizomiy ta'zirga tortiladi.

Yuqori darajadagi zararlar aniqlangan vaqtning o'zida oraliq dalolatnomalar tuzilib, huquni muhofaza qiluvchi idoralarga taqdim etiladi. Ularni bartaraf qilish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, ushbu holatda jinoiy javobgarlikka tortish masalalri ko'tariladi. Bular, bir hil majburiyatlarni qayta to'lash, qonun yoki shartnomada nazarda tutilmagan xarajatlar, to'lanadigan summalarni asossiz ravishda oshirib yuborish, hech qanday sababsiz pul o'tkazish, tegishli ruxsatnomasiz to'lov, olingan daromad miqdorini kamaytirish, qonuniy asoslarsiz to'lovlar, qoidalarni buzgan holda mukofotlarni to'lash, kassa intizomini buzish, qonunni buzgan holda pul o'tkazmalari,

hech qanday sababsiz kompensatsiya to'lash, noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanish, buzilgan ma'lumotlarni taqdim etish, moliyaviy resurslarning qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlari, qaytarib bo'lmaydigan mablag'lar, ombordagi haqiqiy qoldiqlarni yashirish, uskunalar qismlarini yo'qotish, uskunani ishdan chiqarish, harakatsizlik tufayli mulkka zarar, texnogen baxtsiz hodisalarda yo'qotishlar, tabiiy ofatlardan etkazilgan zarar (himoya choralari bo'lmagan taqdirda), mulkni vakolatsiz tasarruf etish, buzilish faktlarini yashirish, yo'qotish faktlari haqida bildirmaslik, mulk holati to'g'risida yolg'on ma'lumotlar, zararni sun'iy ravishda oshirib yuborish holatlari aniqlanganda jinoyat ish ochish choralari ko'riladi.

Xavfli darajadagi zararlar aniqlangan vaqtning o'zida ham oraliq dalolatnomalar tuzilib, huquni muhofaza qiluvchi idoralarga taqdim etiladi. Ularni bartaraf qilish imkoniyatlari sud orqali amalga oshiriladi. Bunda o'g'irlash; o'zlashtirish; maqsadsiz foydalanish; daromadlarni yashirish; soxta to'lovlar; o'lik jonlar; hisobot qalbakilashtirish; soxta bayonotlar; to'lovlarni soxtalashtirish; vakolatlarni suiiste'mol qilish; manfaatlar to'qnashuvi; til biriktirish; korrupsiya to'lovlari; noqonuniy mukofotlar; moliyaviy qalbakilashtirish; yo'qotishlar; inventarizatsiyani soxtalashtirish; mulkni almashtirish; buxgalteriya hisobini soxtalashtirish; hujjatlarni qalbakilashtirish; yong'indagi yo'qotishlar va zararlar hamda boshqa holatlar sud tartibida aybdor shaxslar aniqlanib undiruvga qaratiladi, jinoiy javobgarlikka tortish choralari ko'riladi.

Nazorat tadbirlarida aniqlanadigan qonunbuzilish va kamchiliklarning quyidagi tasnifini ko'rishimiz mumkin:

Kamchilik – bu samarasiz faoliyatning fakti yoki xatosi bo'lib qonunbuzarlik hisoblanmaydi. Shu o'rinda mansabdor shaxs yoki tashkilotlarning harakatlari (harakatsizliklari) taftishchi (tekshiruvchi) tomonidan ishning yuqori natijalariga kam xarajatlar bilan erishish imkoniyati tasdiqlangan va davlat mablag'larni qabul qilish, saqlash va samarali ishlatilishining barcha imkoniyatlarini qo'llamaganligi aniqlangan hollarda samarasiz baholanadi. Agar yetishmovchilik tabiatan kichik deb tan olinmasa, korxonaharbari jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun materialni tergov organlariga topshirishga majburdir. Kamchiliklarning katta va kichik malakalari katta rol o'ynaydi, bu aybdorga jazo tayinlash uchun asosdir. Masalan, birinchi marta sodir bo'lgan kichik etishmovchilik va bundan tashqari, xodimning tajribasizligi, noto'g'ri hisob-kitobi yoki jinoiy jinoyat belgilarini o'z ichiga olmaydigan boshqa xatti-harakatlari tufayli unga etkazilgan zararni to'liq qoplash bilan intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin.

Qoidabuzarlik – bu qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan taqiqlangan, vazirning buyruqlari, shartnoma va boshqa hujjatlar bilan belgilangan

qoida, shart va talablarga muvofiq bo'lmagan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Xato - Moliyaviy hisobotdagi ataylab qilinmagan buzib ko'rsatish, jumladan moliyaviy hisobot tuzishda ochib berilishi talab etiladigan ma'lumotlarni yoki qandaydir summalarni qoldirib ketish.

Tafovutlar - tasdiqlanishi lozim bo'lgan yoki tadbirkorlik subyekting buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlari bilan tasdiqlovchi tomon taqdim etgan ma'lumotlari o'rtasida farq mavjudligini ifodalovchi javob.

Firibgarlik - Rahbariyat, boshqaruv yuklatilgan shaxslar, xodimlar yoki uchinchi shaxslar orasidan bitta yoki bir nechta shaxslar tomonidan aldash yoli bilan nohaqqoniy va noqonuniy manfaat ko'rish maqsadida ataylab qilinadigan harakat.

Ziddiyatlik - Audit qilingan moliyaviy hisobotlarda qarama-qarshiliklar keltirilgan boshqa ma'lumot. Muhim ziddiyatliklar oldin qo'lg'a kiritilgan auditorlik dalillari asosida shakllangan auditorning xulosalari to'g'risida va ehtimol, moliyaviy hisobotlar bo'yicha berilgan auditorlik fikrining asosi to'g'risida shubha uyg'otishi mumkin.

Buzib ko'rsatish - Moliyaviy hisobot moddasining qiymati, tasniflanishi, taqdim etilishi yoki ochib berilishi bilan ushbu moddaning o'rnatilgan tartibda moliyaviy hisobotni taqdim etishga muvofiq qiymati, tasniflanishi, taqdim etilishi va ochib berilishi o'tasidagi farq. Hisobotda buzib ko'rsatish xato yoki firibgarlik natij asida yuzaga kelishi mumkin.

Beparvolik - bu rasmiy jinoyatlarning bir turi. Bu mansabdor shaxs o'z ishiga beparvolik yoki vijdotsiz munosabat tufayli o'z xizmat vazifalariga kiritilgan har qanday harakatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan iborat.

O'g'irlash - boshqa birovning mol-mulkini o'z manfaati uchun yoki boshqa shaxslarning manfaati uchun tasarruf etish yoki tasarruf etish uchun o'z manfaati maqsadiga noqonuniy ravishda qasddan munosabatda bo'lish.

Soxtalashtirish - har qanday ma'lumotni o'z manfaati uchun ataylab buzish. Amalda, soxta hujjatlarning ikki turi mavjud: to'liq ishlab chiqarilgan, unda barcha tafsilotlar (tipografik shakl, shtamp izlari, muhrlar, imzolar va boshqalar) va qisman qalbakilashtirish amalga oshirilgan hujjatlar, masalan, bitta familiya o'rniga boshqasi yozilgan, raqamlar o'zgartirilgan, matnning bir qismi o'chirilgan, yangi matn qo'shilgan.

Aldash - korxonada xodimlari rahbariyat tarkibidagi bir yoki bir nechta shaxs tomonidan moliyaviy ma'lumotlarni qasddan noto'g'ri ko'rsatish. Aldash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin: yozuvlarni yoki hujjatlarni manipulyatsiya qilish, qalbakilashtirish yoki o'zgartirish; turli xil moddalarni aktivlarga qasddan

noto'g'ri kiritish; hujjatlarni yo'q qilish; ularning mazmunini ko'rsatmasdan operatsiyalarni aks ettirish; korxonada buxgalteriya echimlarini noto'g'ri qo'llash.

Hisobga olinmagan mahsulotlar – ishlab chiqarish jarayonida tegishli hujjatli aks ettirilmagan va mahsulotlarning o'zi do'kon yoki omborning qabul hujjatlari bilan rasmiylashtirilmagan va buxgalteriya hisobida joylashtirilmagan mahsulotlar.

Noqonuniy harakatlar - qonunga zid bo'lgan, qasddan yoki niyatsiz qilingan harakatlar.

Noto'g'ri - bu normalarning buzilishi (shu jumladan firibgarlik), noqonuniy harakatlar va xatolarni o'z ichiga olgan atama.

Sifatsiz hujjatlar - noto'g'ri tuzilgan va haqiqatan ham bajarilgan operatsiyani aks ettirmaydigan yoki buzilgan shaklda aks ettiradigan hujjatlar. Sifatsiz hujjatlar shakli va mohiyatan ularda aks ettirilgan operatsiyalar (soxta) bo'yicha sifatsiz hujjatlarga bo'linadi. Bila turib yolg'on ma'lumotlarni o'z ichiga olgan soxta hujjatlar to'liq yoki qisman tovlamachilikka (pulsiz) bo'linadi. Har qanday moddiy boyliklarning harakati, ularning kelib tushishi yoki sarflanishi, bu qadriyatlar o'g'irlangan (sotilgan) yoki harakatsiz qolgan holda tuzilgan hujjat tovlamachilik deb ataladi.

Harakatsizlik - bu tashkilot (korxonaga) ga moddiy zarar etkazilishining oldini olish uchun mansabdor shaxs (ma'muriyat, mutaxassislar) tomonidan ushbu shartlarda bajarilishi shart bo'lgan nomukammal harakat.

O'zlashtirishlar qonunbuzilishlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Yashirincha o'zlashtirishlar buxgalteriya hisoblarini sohtalashtirish bilan bog'lik. Bunday jinoyatlar maxsus taftish o'tkazish yo'li bilangina aniqlanishi mumkin. Bu buxgalteriya hisoblari bo'yicha taftish o'tkazish nazorat taftishi va huquqni muhofaza qiluvchi turli xil subyektlarga taa'luqli. Bunda berkitilgan qonun buzarliliklar hisobot ma'lumotlariga asosan uch shaklda o'z aksini topadi:

- alohida hujjatlar tarkibidagi nomuvofiqlik;
- bir biriga bog'liq bo'lgan hujjatlarning nomuvofiqligi;
- qimmatliklarning oddiy harakat tartibidan chetlatish.

Ko'pgina yashirin talon-tarojlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini sohtalashtirish bilan bog'liq. Bunday holatlarida inventarizatsiya paytida kamomad yoki ortiqchaliklar aniqlanmaydi. Jinoyatning hisob ma'lumotlarini maxsus tekshirish yordamida ochiladi.

Bunday tadqiq qilish usullari imkoniyatlaridan nazorat tekshiruvchi, taftish va huquqni muhofaza qiluvchi soha vakillari keng foydalanadilar. Shuningdek, bu usullarni moddiy javobgar shaxslar faoliyatini nazorat qiluvchi buxgalteriya xodimlari, buxgalter taftishchilar o'z faoliyatlari davomida qoidabuzarlik va suiiste'molliklar

bilan duch kelganlarida qo‘llaydilar. O‘z vakolatlari doirasida tadqiq qilishning alohida usullarini operativ-tergov xodimlari ham qo‘llaydilar, ammo har doim cheklangan doirada va mavjud yo‘nalish beruvchi axborotga asoslanish talab qilinadi. Jinoyatlarni aniqlashda kombinatsion yondashuv samarali bo‘lib, bunda avval tezkor-qidiruv va tergov xodimlari mustaqil yoki tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda oldindan tanlab olingan hisob buxgalteriya ma‘lumotlarini tekshiradilar. So‘ngra, agarda jinoyat buxgalteriya hisob ma‘lumotlarida o‘z aksini topganligi aniqlansa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar talabiga ko‘ra taftish o‘tkaziladi, taftishchiga muayyan topshiriq berilib, uning keyingi faoliyati ustidan nazorat o‘rnatiladi.

Kamchiliklarni berkitish, ba’zida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri suiiste‘mol belgilarini berkitish maqsadida, buxgalteriya ishchilari balansni qalbakilashtirish, sohtalashtirishga majbur bo‘lishlari mumkin. Sud amaliyotidan bunday sohtalashtirishning uchta asosiy usullari ma‘lum:

1) balansni alohida moddalari bo‘yicha mablag‘larni asoslanmagan harakati (*masalan, “Tayyor mahsulot” moddasi bo‘yicha qoldiq ko‘paytiriladi va “Boshqa debitorlik majburiyatlar” moddasi bo‘yicha kamaytiriladi*);

2) balansni bir necha moddalari bo‘yicha qoldiqlar bir vaqtni o‘zida sun‘iy ravishda ko‘paytiriladi (*“Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha majburiyat” va “Taqsimlanmagan foyda” moddalari bo‘yicha qoldiqlarni ko‘paytirilishi*);

3) aktiv va passiv schyotlar bo‘yicha qoldiqlarni mos holda qisqartirish, bu umumiy yakunlarni, aktiv bo‘yicha ham, passiv bo‘yicha ham qisqarishga olib keladi.

Yashirin suiiste‘molliklar hisob ma‘lumotlarida, asosan uch xil shaklda aks etadi:

1) alohida hujjat mazmunidagi nomuvofiqliklar;

2) o‘zaro bog‘liq bir nechta hujjatlar mazmunidagi ziddiyatlar;

3) moddiy qimmatliklar harakatining odatiy tartibidan chetga og‘ishlar.

Ta’kidlash lozimki, sohtalashtirish belgisi bu – bitta hujjatning turli nusxalarida ziddiyatlarning mavjudligi yoki o‘zaro bog‘liq tashkilotlarda hujjat nusxalarining yo‘qligidir.

Hujjat nusxalaring yo‘qligi ba’zi holatlarda ularning yo‘qotilishi yoki almashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa holatlarda bunday hujjat tashkilotda umuman tuzilmaganligi bilan izohlanadi. To‘plangan hujjatli ma‘lumotlarning tahlili tergovchiga jinoyat taxminiy ishtirokchilarining doirasini qisqartirishga yordam beradi.

Tekshirilayotgan hujjatning asl yoki sohtaligini aniqlashda ekspert buxgalter asl hujjatlaridagi talablarga javob berishga e’tibor berishi lozim. Noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjat ayni vaqti ham haqiqiy ham sohta bo‘lishi mumkin va bu

narsa ekspert buxgalter tomonidan ularni o'rganib chiqishda aniqlanadi. O'zida noqonuniy, lekin haqiqatda amalga ashirilgan operatsiyalarini aks ettirgan hujjat haqiqiy hisoblanadi. Haqiqatda mavjud bo'lmagan xo'jalik operatsiyalarini o'zida aks ettirgan hujjatlar har doim sohta hisoblanadi. Hujjat o'zida qalbaki operatsiya(amalga oshirilgan)ni aks ettirishi mumkin, lekin bu bilan u qalbaki bo'lmaydi, balki sohta hujjat deb baholanadi.

Shu bilan birga o'zida moddiy va intellektual sohtalashtirishni aks ettirgan hujjatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Moddiy sohtalashtirish – bunda jinoyatchi asl hujjatga o'zgartirish kiritadi yoki yangi sohta hujjat tayyorlaydi. Intellektual sohtalashtirish bunda oldindan sohta ma'lumotlardan iborat hujjat tuziladi.

Sohta hujjatlar o'z o'rnida shakl jihatdan sohta, noto'g'ri rasmiylashtirilgan va sohta ya'ni o'zida oldindan sohta ma'lumotlarni aks ettirgan turlarga ajratiladi.

Sohta hujjatlar ichida⁷:

- 1) molmulkli(tovarli);
- 2) mol-mulksiz (*tovarsiz*);
- 3) pulsiz hujjatlarga bo'linadi.

Nazorat tadbirlari davomida qoidabuzarlik va kamchiliklar aniqlanganda taftishchilar bularni sodir etish sharoitlarini sinchkovlik bilan o'rganadilar, hamda davlatning iqtisodiy manfaatlari va nazorat obyektining moliya-xo'jalik faoliyatining natijalariga bo'lgan ta'sirini qiymat darajasida baholaydilar.

Aniqlangan qoidabuzarlik va kamchiliklarning sabab va oqibatini tahlil qilganda taftishchi (berilgan vakolatlar doirasida) ushbu qoidabuzarlik va kamchiliklarni ro'yobga kelish sabablarini, aybdor shaxslarni, davlatga yetkazilgan zarar va uning turini (mavjud bo'lganda) aniqlaydi va shu jumladan nazorat obyektini kuchlari bilan qoidabuzarlikni bartaraf etish hamda zararni qoplash bo'yicha choralarni belgilaydi.

Nazorat tadbirlarini o'tkazish davomida davlat mablag'larini sarflash va davlat mulkini ishlatish bilan bog'liq qalbakilashtirish, soxtalashtirish, kamomad, o'g'irlash va boshqa suiiste'molliklar aniqlangan holda taftishchi zudlik bilan oraliq dalolatnoma rasmiylashtiradi, va uni belgilangan tartibda nazorat materiallarini qonuniylikni nazorat qiluvchi organlarga yuboriladi.

Jinoiy javobgarlik alomatleri bor qoidabuzarliklar bo'yicha oraliq dalolatnoma rasmiylashtiradi, tekshirilayotgan obyektning mansabdor shaxslaridan yozma ravishda tushuntirishlarni oladi va qonunga xilof harakatlarni oldini olish bo'yicha choralar ko'rishni talab qiladi.

Qoidabuzarlik aniqlanganda taftishchi tekshirilayotgan obyektning mansabdor shaxslarini uni amalga oshirilishidagi ishtirokini aniqlaydi.

⁷ Ортиков А. “Судебная бухгалтерия” Учебник. -Т.: “TDYUI kichik bosmaxonasi”, 2007.

Qoidabuzarlikni va aybdor shaxslarni aniqlashdan tashqari taftish guruhining vazifalardan biri aniqlangan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish hisoblanadi. Shuni inobatga olish kerakki, olib borilayotgan taftish doirasida aybdor shaxslardan zararni qoplash faqat ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Aybdor shaxsga nisbatan ixtiyoriy ravishda zararni qoplagan bo'lsa ozodlikdan mahrum etish choralari (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi) qo'llanilmasligiga o'xshash tushuntirish ishlari nazorat obyekti rahbariga ishtirokida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ta'sirchan choralar sifatida 2026-yil 1-apreldan boshlab 2030-yil 1-yanvarga qadar eksperiment tariqasida davlat organlari va tashkilotlarida mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi ustidan ta'sirchan nazoratni olib borishining quyidagi tartibi joriy etildi:

- davlat organlari va tashkilotlarida Hisob palatasining vakili sifatida bosh inspektor faoliyati yo'lga qo'yiladi;

- bosh inspektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga uslubiy ko'maklashish maqsadida Hisob palatasi tuzilmasida Davlat organlari va tashkilotlari budjetlari xarajatlarining samaradorligini nazorat qilish sho'basini tashkil etildi;

- Hisob palatasiga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida davlat dasturlari, qonunchilik va boshqaruv jarayonlarining samaradorligi, qonuniyligi hamda maqsadga muvofiqligini baholashni moliyaviy, muvofiqlik va samaradorlik auditlari doirasida o'tkaziladi;

- sohada kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini, iqtidorli yoshlarni davlat auditi sohasiga maqsadli yo'naltirish, sohada ta'lim va ilmiy-tadqiqot integratsiyasini ta'minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'lim yo'nalishi shaklida huquqiy maqomi oliy ta'lim tashkiloti fakultetiga tenglashtirilgan Davlat auditi oliy maktabi tashkil etildi.

Yuqoridagi holatlarning oldini olish maqsadida korxonalar boshlig'i va bo'linmalar rahbariyati doimiy ravishda quyidagi choralarni ko'rishlari lozim:

- moliyaviy boshqaruvga mas'ul mansabdor shaxslarning ishini doimiy nazorat qilish;

- mehnat jarayonida mansabdor shaxslarning xulq-atvori yuklangan mas'uliyat masalalari bo'yicha o'z funksional vazifalariga beparvo munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

- mansabdor shaxslarning shaxsiy mablag'larini isrofgarchilik bilan sarflash (har qanday qimmat shaxsiy mablag'larni o'zlashtirish, ya'ni olingan pul mablag'lari hisobiga olish imkoniyatini e'tiborsiz qoldirmaslik) kuzatilgan taqdirda nazoratni kuchaytirish choralari ko'rish;

- moliyaviy faoliyatni monitoring qilish bo'yicha ichki tekshiruv komissiyasi (ichki nazorat) tarkibiga tekshirishni tashkil etish masalalarini o'rganishi mumkin bo'lgan vakolatli mansabdor shaxslar tayinlash;

- darslarni tashkil qilish va bu masalalar bo'yicha doimiy bilimlarni talab qilish;

- barcha aniqlangan faktlar bo'yicha barcha aybdor mansabdor shaxslarning faoliyati va oshkoraligini tahlil qilgan holda qattiq huquqiy choralar ko'rish;

- ichki taftish komissiyalarining bir qismi va ularning kuchlari tomonidan hujjatlashtirilmagan qoidabuzarliklarning aniq faktlari aniqlangan taqdirda mutaxassislarni jalb qilish.

Moliyaviy nazoratni tashkil etishda qoidabuzarliklarning oldini olish, mas'ul mansabdor shaxslarning faoliyatini faollashtirish maqsadida korxonalar (tashkilotlar)da o'quv jarayonlari, malaka almasishlar amalda qo'llanilishi zarur.

Kundalik hayotda yo'l qo'yilgan va aniqlangan moliyaviy qoidabuzarliklarning asosiy sabablarini tahlil qilishda moliyaviy nazorat uchun mas'ul mansabdor shaxslarning o'z vazifalarini bajarmasligining muntazamligi aniqlandi, buni vaqt etishmasligi yoki ushbu masala bo'yicha normativ hujjatlar, qonun hujjatlari talablarini bilmaslik bilan izohlanmoqda. Normativ hujjatlar talablari kadrlar almashinuvini hisobga olgan holda javobgar shaxslarga doimiy ravishda e'tibor qaratish lozim.

Moliyaviy faoliyat natijalariga ko'ra moliyaviy nazoratga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarga kamchilik, qoidabuzarlik va harakatsizliklarga yo'l qo'yganda qat'y choralar:

- ham jazo e'lon qilish;

- ham egallab turgan lavozimidan bo'shatish;

- ish(korxonalar)dan bo'shatish bilan qattiq jazolanishi nazarda tutilgan.

Quyida Siz yuborgan maqola mazmuni, metodologik yo'nalishi va tahlil natijalariga tayangan holda **Scopus talablari darajasiga yaqin, ilmiy-uslubiy jihatdan pishiq, mantiqan yakunlangan "Xulosa" va "Takliflar" qismi tayyorlandi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot moliyaviy nazorat jarayonida aniqlanadigan qoidabuzarliklar, kamchiliklar, xatolar, firibgarlik holatlari va boshqa moliyaviy buzilishlarning mazmunini tizimli ravishda ochib berdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy nazorat faqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tekshiruvchi mexanizm emas, balki davlat mablag'lari va mulkidan foydalanish qonuniyligi, maqsadlilik hamda samaradorligini baholovchi kompleks boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan nazorat tadbirlari davomida aniqlanadigan buzilishlarning tabiatini to'g'ri

tasniflash, ularni huquqiy va iqtisodiy oqibatlarini bilan birga baholash moliyaviy intizomni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida moliyaviy nazoratda uchraydigan buzilishlar mazmunan turlicha bo'lishi, ya'ni oddiy hisob-kitob xatolaridan tortib, qasddan sodir etiladigan soxtalashtirish, o'zlashtirish, qalbakilashtirish va firibgarlik holatlarigacha bo'lgan keng spektrni qamrab olishi aniqlandi. Bu esa moliyaviy nazoratni yagona standart yondashuv asosida emas, balki xavf darajasi, zarar miqdori, qasddanlik elementi va institutsional oqibatlariga ko'ra differensial yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, kamchilik, qoidabuzarlik, xato va jinoyat alomatiga ega moliyaviy buzilishlar o'rtasidagi farqni aniq belgilash nazorat organlarining huquqiy xulosalari va boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi.

Maqolada ko'rsatilganidek, moliyaviy buzilishlar yuzaga kelishining asosiy omillari sifatida ichki nazoratning sustligi, mansabdor shaxslarning normativ-huquqiy bazani yetarlicha bilmasligi, vazifalarga beparvo munosabat, hujjatlashtirish intizomining zaifligi, kadrlar almashinuvi, monitoringning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda ayrim hollarda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion rag'batlarning mavjudligi namoyon bo'ladi. Demak, moliyaviy qoidabuzarliklarning sezilarli qismi faqat individual xato natijasi emas, balki tashkiliy boshqaruv va nazorat tizimidagi tizimli nuqsonlar mahsuli hisoblanadi. Shu sababli ularni bartaraf etish faqat jazolash bilan cheklanmasdan, profilaktik va institutsional islohotlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, moddiy zarar miqdorini to'g'ri aniqlash moliyaviy nazoratning markaziy vazifalaridan biridir. Zararni nominal qiymat, bozor bahosi, haqiqiy yo'qotish yoki real xarajatlar asosida hisoblash yondashuvi huquqiy javobgarlikni belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq amaliyotda aynan zarar miqdorini baholash mezonlari, hujjatlar ishonchliligi, dalolatnoma tuzish sifati va aybdor shaxslarni identifikatsiya qilishdagi muammolar nazorat samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat moliyaviy nazoratda dalillarga asoslangan, hujjatli tasdiqlangan va raqamli kuzatuvga tayanuvchi mexanizmlarni kuchaytirish zaruratini kuchaytiradi.

Maqolaning muhim ilmiy natijalaridan biri shundaki, moliyaviy nazoratda aniqlanadigan buzilishlarni zarar darajasi bo'yicha past, o'rta, yuqori va xavfli toifalarga ajratish amaliy boshqaruv nuqtai nazaridan maqbul model sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tasnif nazorat natijalariga nisbatan mutanosib choralarni belgilash, ya'ni ayrim holatlarda ichki tuzatish va intizomiy ta'sir choralari, boshqa holatlarda esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb etish, moddiy undirish yoki jinoiy-huquqiy baholash choralari qo'llash imkonini beradi. Bunday yondashuv nazorat

tizimining repressiv emas, riskga asoslangan va natijadorlikka yo‘naltirilgan modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ichki audit va ichki nazorat institutlari rivojlangan tizimlarda tashqi davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi ham ortishini ko‘rsatadi. Ya’ni, moliyaviy buzilishlarni faqat tashqi tekshiruv orqali aniqlash modeli resurs talabchan va kechikkan mexanizm bo‘lsa, ichki nazoratning kuchli ishlashi buzilishlarni erta bosqichda aniqlash, zarar ko‘lamini kamaytirish hamda moliyaviy intizomni tashkilot ichida mustahkamlash imkonini beradi. Shu ma’noda, ichki nazorat va tashqi audit o‘rtasidagi funksional integratsiya zamonaviy davlat moliyaviy boshqaruvining eng muhim shartlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot moliyaviy nazorat tizimida aniqlanadigan buzilishlarning tasnifi, iqtisodiy-huquqiy tavsifi va ularning oldini olish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash orqali nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, unda moliyaviy nazorat natijalarini faqat huquqbuzarliklarni qayd etish vositasi sifatida emas, balki boshqaruv sifatini oshirish, budget intizomini mustahkamlash, davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini yuksaltirish va korrupsion xavflarni kamaytirish instrumenti sifatida talqin qilish taklif etiladi. Shu sababli maqola natijalari budget tashkilotlari, davlat ulushi mavjud korxonalar, ichki audit xizmatlari, nazorat-taftish organlari hamda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga mas’ul subyektlar faoliyatida metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Takliflar

Birinchidan, moliyaviy nazorat jarayonida aniqlanadigan buzilishlarning yagona klassifikatorini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu klassifikatorda “kamchilik”, “qoidabuzarlik”, “xato”, “firibgarlik”, “soxtalashtirish”, “beparvolik”, “o‘zlashtirish”, “harakatsizlik” kabi tushunchalarning aniq huquqiy va amaliy mezonlari belgilanishi lozim. Bu nazorat organlari o‘rtasida turlicha talqinlarni kamaytiradi, nazorat hujjatlari sifatini oshiradi va javobgarlik choralarni mutanosib qo‘llashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy nazoratni xavfga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish zarur. Bunda barcha nazorat obyektlari uchun bir xil tekshiruv yuklamasini qo‘llash o‘rniga, mablag‘lar hajmi, oldingi buzilishlar tarixi, ichki nazorat sifati, kadrlar barqarorligi, xaridlar hajmi va shartnomaviy operatsiyalar murakkabligi kabi indikatorlar asosida risk profili shakllantirilishi kerak. Mazkur yondashuv resurslarni yuqori xavfli segmentlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Uchinchidan, ichki nazorat va ichki audit tizimlarini tashkilot darajasida institutsional jihatdan kuchaytirish lozim. Xususan, ichki nazorat komissiyalarining

vakolatlari aniq belgilanishi, ularning faoliyati formallikdan chiqarilib, muntazam monitoring, tanlab tekshirish va tuzatish choralari bilan boyitilishi kerak. Ichki audit xulosalari faqat ma'lumot beruvchi hujjat emas, balki rahbariyat uchun majburiy ijro nazorati obyektini sifatida qaralishi lozim.

To'rtinchidan, moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash uchun raqamli monitoring vositalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Elektron hujjat aylanishi, tranzaksiyalarni avtomatik kuzatish, shubhali operatsiyalar bo'yicha signal beruvchi indikatorlar, takroriy to'lovlar, asossiz xarajatlar, ruxsatsiz o'tkazmalar va tasdiqlovchi hujjatsiz moliyaviy operatsiyalarni aniqlovchi algoritmlar nazorat samaradorligini sezilarli oshiradi. Bu inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlikni kamaytiradi va buzilishlarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi.

Beshinchidan, mansabdor shaxslar va moddiy javobgar xodimlar uchun normativ-huquqiy hujjatlar, budjet intizomi, buxgalteriya hisobi, hujjatlarni rasmiylashtirish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi ichki standartlar bo'yicha doimiy malaka oshirish tizimini joriy etish lozim. Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, buzilishlarning muayyan qismi qasddan emas, balki bilim yetishmasligi, tajriba kamligi yoki me'yoriy talablarni noto'g'ri talqin qilish bilan bog'liq. Shuning uchun profilaktika choralari jazolashdan oldin bilim va kompetensiyani oshirishga qaratilishi kerak.

Oltinchidan, moddiy zarar miqdorini aniqlashning yagona metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Ushbu metodikada nominal zarar, haqiqiy zarar, qaytarib bo'lmaydigan yo'qotish, potensial zarar va bilvosita iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari aniq belgilanishi kerak. Natijada nazorat organlari, sud-huquq amaliyoti va ichki audit xizmatlari o'rtasida bir xil yondashuv shakllanadi.

Yettinchidan, moliyaviy nazorat natijalari bo'yicha javobgarlik tizimini differensiallashtirish lozim. Ya'ni, oddiy hisob xatolari va protsessual kamchiliklar uchun tuzatish va intizomiy choralar, takroriy yoki tizimli buzilishlar uchun ma'muriy ta'sir, qasddan sodir etilgan firibgarlik, soxtalashtirish va o'zlashtirish holatlari uchun esa jinoiy-huquqiy choralar qo'llanishi zarur. Bunday yondashuv javobgarlikning adolatliligini ta'minlaydi va nazorat tizimiga nisbatan ishonchni oshiradi.

Sakkizinchidan, taftish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, protsessual hamkorlik va tezkor javob mexanizmlarini takomillashtirish muhimdir. Moliyaviy nazorat davomida jinoiy alomatlar aniqlangan holatlarda oraliq dalolatnoma rasmiylashtirish, dalillarni saqlash, aybdor shaxslardan tushuntirish xatlari olish va materiallarni tegishli organlarga yuborish bo'yicha standart operatsion tartiblar yanada aniq ishlab chiqilishi lozim.

To‘qqizinchidan, nazorat obyektlarida “nol toqat” tamoyili bilan bir qatorda “erta ogohlantirish va tuzatish” mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi. Chunki barcha buzilishlarni faqat jazo vositasida boshqarish amaliy jihatdan samara bermaydi. Aksincha, kichik kamchiliklarni erta aniqlash, tuzatish rejasini ishlab chiqish va ijrosini monitoring qilish orqali yirik moliyaviy talafotlarning oldi olinadi.

O‘ninchidan, kelgusidagi tadqiqotlarda moliyaviy nazorat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni empirik ma’lumotlar asosida baholash zarur. Xususan, qaysi turdagi buzilishlar eng ko‘p uchrashi, ularning tarmoqlar bo‘yicha farqi, ichki auditning qamrovi va samarasi, raqamlashtirish darajasining buzilishlarni kamaytirishdagi roli, kadrlar malakasi bilan moliyaviy intizom o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi yo‘nalishlarda statistik va ekonometrik tahlillar o‘tkazilishi maqolaning ilmiy istiqbolini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024 yil 10 iyuldagi "Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-100-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 5-noyabrdagi “Davlat moliyaviy nazorat organlari va ichki audit xizmatlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining “Davlat auditi” dasturiy kompleksidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 95-son (O‘R AV tomonidan 2025-yil 12-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3704) qarori.
4. Варнакова Г. Ф. Контроль и ревизия: учебное пособие. М.: УлГУ, 2010.
5. Грачева Е.У.; Толстопятенко Г.П.; Рыжкова Е.А. Финансовый контроль; ИД Камерон - Москва, 2013. - 272 с.
6. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н.,(2014) Финансовый контроль: –М.: Изд-во РУДН.-124с.
7. Закутнев С.Е. Организация внутреннего финансового аудита финансово-экономической и хозяйственной деятельности в Вооруженных Силах Российской Федерации // Вооружение и экономика, 2011. – № 3 (15). – С. 73-80.
8. Крохина Ю.А. Финансовое правонарушение: понятие, состав и санкции // Финансовое право. 2004. №3.С. 16-20.
9. Babaxonov J.M. Moliyaviy nazorat va uning O‘zbekiston iqtisodiyotida budget munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rni // Logistika va iqtisodiyot, 2021. – 3-son. – B. 121-127.

10. Po‘latov D.X. O‘zbekistonda budget nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy xususiyatlari // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center, 2022. – № 2. – P. 544-551.

11. Hamdamov B.Q. “Auditning xalqaro standartlari” darslik – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. 74-b.